

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARDA ILMIY TADQIQOTLARNI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Ergashev Oybek Qaxramon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi
oergashev@kokanduni.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18942821>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Sotsiologiya, falsafa va huquq sohalaridagi nazariy xulosalarni jamiyat hayotiga tatbiq etishda uchrayotgan to‘siqlar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotda fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishning innovatsion modellari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, gumanitar fanlar, amaliyotga joriy etish, integratsiya, sotsiologik tadqiqotlar, mexanizm, ijtimoiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные вопросы внедрения результатов научных исследований в области социально-гуманитарных наук в практику. Рассмотрены барьеры при внедрении теоретических выводов в области социологии, философии и права в общественную жизнь, а также пути их преодоления. В исследовании предложены инновационные модели усиления интеграции науки, образования и производства.

Ключевые слова: инновации, гуманитарные науки, внедрение в практику, интеграция, социологические исследования, механизм, социальное развитие.

Abstract: This article analyzes current issues of implementing scientific research results in the field of social sciences and humanities into practice. Barriers to the implementation of theoretical findings in the fields of sociology, philosophy and law into public life and ways to overcome them are considered. The study proposes innovative models for strengthening the integration of science, education and production.

Keywords: innovation, humanities, implementation into practice, integration, sociological research, mechanism, social development.

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va tadqiqot natijalarini iqtisodiyotning real sektorlariga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlar jamiyatdagi barqarorlikni ta‘minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va huquqiy savodxonlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi.

«Bizning fikrimizcha, eng katta muammo — ilmiy nashrlar muammosidir. Xalqaro va milliy reytinglarga kirish zamonaviy ilmiy tadqiqotchi oldiga materiallarni xalqaro bazalarda (Scopus, Web of Science va h.k.) indekslanadigan jurnallarda chop etish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday jurnallarda maqola chiqarish bo‘yicha avvalgi tajribaga ega bo‘lmagan tadqiqotchilar nashr jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar: nufuzli ilmiy jurnallar maqolani rad etadi yoki qayta ishlashga qaytaradi, yoxud nashr uchun to‘lov talab qilinadi[1].

Maqolani qayta ishlash va xatolarni tuzatish — murakkab vazifa bo‘lib, bunga hamma ham jazm qilavermaydi. Shu sababli, ikkinchi yo‘l jozibador bo‘lib ko‘rinadi. Ikkinchi yo‘lni tanlashda muallif jurnalning sifati va nufuziga yetarli daracha e‘tibor qaratmaydi. Shubhali obro‘ga ega bo‘lgan bunday jurnallarda maqolaning hech qanday e‘tirozlarsiz, darhol qabul qilinishi, lekin faqat nashr uchun to‘lov talab qilinishi ba‘zilarni ajablantirmaydi. Natijada, ko‘pchilik "yirtqich jurnallar" (predatory journals) deb ataluvchi nashrlarning qurboniga aylanmoqda. Maqolalarni tezroq chop etish talabi tadqiqotchilarni borgan sari ana shunday yirtqich jurnallarga murojaat qilishga majbur qilmoqda.

Publons tomonidan 2020-yilda o‘tkazilgan tadqiqot Internet tarmog‘idagi 1000 dan ortiq yirtqich jurnallar uchun kamida 6000 ta "soxta" taqrizlarni aniqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, keng qo‘llaniladigan Scopus akademik ma‘lumotlar bazasida shubhali nashr etish amaliyotiga ega bo‘lgan 300 dan ortiq potentsial yirtqich jurnallarning maqolalari saqlanmoqda. Umumiy hisobda, ushbu jurnallar uch yil ichida 160 mingdan ortiq maqola chop etgan — bu ushbu davr mobaynida Scopus‘da indekslangan tadqiqotlarning deyarli 3 foizini tashkil etadi [2].»

«2019 va 2020-yillar davomida Scopus tizimidan chiqarib tashlangan o‘zbekistonlik mualliflarning maqolalari va sharhlari ulushi yuqoriligi (mos ravishda 32,5% va 59,7%) O‘zbekistonni

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

sifatsiz ilmiy ishlar chiqarish bo‘yicha jahon "etakchi"lari qatoriga olib chiqdi. Scopus, Web of Science va boshqa bazalarga kiritilgan jurnallar sifatini monitoring qilish va baholashning, shuningdek, "yirtqich" jurnallarda maqola chop etilishining oldini olish imkonini beruvchi aniq va ravshan mexanizmlarning mavjud emasligi, maqolalar sifatini aniqlash tartibi hamda mualliflar uchun ilmiy maqolalarni tayyorlash va rasmiylashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalarning yo‘qligi ushbu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda [3].

Bunday holatlarning oldini olish uchun xalqaro bazalarda taqriz qilinadigan tavsiya etiladigan jurnallar ro‘yxatini rasman tasdiqlash va muntazam ravishda yangilab borish, shuningdek, yirtqich jurnallar ro‘yxatini e‘lon qilish lozim. O‘z navbatida, halol olim imijini shakllantirish, yosh olimlarga amaliy va metodik yordam ko‘rsatish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Asosiy e‘tibor miqdorga emas, balki sifatga qaratilishi zarur.»

Biroq, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy ishlarni amaliyotga joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, ushbu sohalaridagi natijalar ko‘pincha nazariy xarakterga ega bo‘lib, ularni aniq raqamlar yoki mahsulot ko‘rinishida ifodalash qiyin. Ikkinchidan, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalar yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

1. **Sotsiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish:** Davlat organlari qaror qabul qilish jarayonida olimlarning sotsiologik so‘rovlari natijalariga tayanishi kerak.

2. **"Ilmiy spin-off" korxonalarini tashkil etish:** Oliy ta‘lim muassasalari qoshida ijtimoiy konsalting va huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi innovatsion markazlarni ko‘paytirish.

3. **Integratsiya platformasini yaratish:** Olimlarning ishlanmalari va ish beruvchilarning ehtiyojlari uchrashadigan yagona elektron bazani takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasini kuchaytirish jamiyatdagi murakkab jarayonlarni ilmiy asoslangan holda boshqarish imkonini beradi. Innovatsiyalar nafaqat texnologiyada, balki ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topishi zarur.

Adabiyotlar

1. Rasulev A, Khujayev sh, Rasuleva I. - Жамият ва инновациялар– 3 № 2 (2022) / ISSN 2181-1415 – b. 213

2. Расулев А.К. Повышение качества и результативности юридического образования и науки // Фан ва таълим замонавий босқичда: ислохотлар ва стратегик йўналишлар. – b. 16-23

3. Хан В. Лохотрон в современной науке (источник: <https://www.gazeta.uz/ru/2022/02/26/fraud-in-science/>).

4. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2022. – B. 85-87.

5. Richard I. Miller. The Quality Movements in Higher Education in the United States // Higher Education in Europe. — 2024. — Vol. XXI. № 2—3.

6. www.sciencedirect.com